

TOG‘AY MUROD QISSALARIDA ESTETIK IDEAL TALQINI

Sanobar To‘laganova

*O‘zR FA O‘zbek tili,
adabiyoti va folklori instituti
yetakchi ilmiy xodimi,
filologiya fanlari doktori*

***Annotatsiya:** Maqolada Tog‘ay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” qissasi tahlilga tortilgan. Ijodkor “men”ini anglashda u yaratgan asar obrazlarining aks-tasviri orqali muallifning g‘oyaviy sig‘imi badiiy tahlil kriteriyalari asosida yoritilgan. Qahramon xarakterini ochib berish orqali estetik idealni tasvirlash ko‘rsatib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** estetik ideal, xarakter, obraz, qiyofa, Tog‘ay Murod, Bo‘ri polvon.*

Ijod insonga o‘zini anglash yo‘lidagi in‘om etilgan mo‘jizalaridan biridir. Borliqni anglash, his etish, idrok va mavjudlik, Yaratganning ne‘matlaridan hayratlanish insonni tafakkur qilishga, mushohadaga undaydi. Badiiy ijod bilan shug‘ullanishni zimmasiga olgan har qanday yozarman uchun badiiy so‘z, adabiyot vosita, bir yo‘ldir. Bu yo‘lni orzulagan ijodkor katta maqsad va niyat bilan qo‘liga qalam tutadi, ammo bu niyatning qanchasi amalga oshadi, bu yog‘i ham Nasiba... Adabiy maydonda kutilmagan burilish yasash oson emasligini hamma biladi, ammo bunga qanday erishish mumkinligini biladiganlar ko‘p emas. Ustozlar ta‘biri bilan aytganda adabiyot maydoniga “portlab” kirish zarur. Ammo birdan “portlash” ham oson emas, avval "portlash"ning kuch quvvatini jamlash, voqelikka ruhiy ma‘naviy jihatdan tayyorgarlik ko‘rish lozim. Buning uchun iste‘dod va tinimsiz mehnat zarur. Mana shu ikki jihat uyg‘unlashsa, yozuvchi ijodida kutilgan “portlash” yuz berishi mumkin. Bunday “portlash”lar har kimga ham nasib etmaydi. Tog‘ay Murod mana shunday “yonib” kirganlardan hisoblanadi.

Yozuvchi ijodini kuzatar ekansiz, tabiiylik va xolislik, rostguylik maftun qiladi, asardagi voqealar ko‘ngilning bir chetiga “uriladi”, qalbingizda aks sado beradi, tuyg‘ularingizni yangilaydi. Yozuvchi dastlabki qissaasi “Yulduzlar mangu yonadi” (1976) deb nomlanadi. Millatning qon-qoniga singib ketgan qadriyatlar tizimi, urf-odatlar, ma‘naviy boylik, ajdodlardan meros sanaladi. Merosga egalik qilish va vorisiylik zanjir halqalari uzilish xavfida qolganini anglagan muallif muammoni mavzu doirasida markaziy o‘ringa olib chiqadi. Aynan mana shu yo‘qotilish arafasidagi an‘analarimiz asar va qahramonlar timsolida qaytadan yangilanadi, qaytadan jon bag‘ishladi. Qahramoni — Xalq, Dardi — Xalq, Armoni — Xalq bo‘ldi.

Qissaning boshlanmasi ham noodatiy. Jarchining chaqirig‘i to‘yga emas, balki o‘zbek nasriga hech kimga o‘xshamagan yangi ovoz kirib kelganidan darak berayotganday edi. “Odamlar-u odamlar, tog‘da bitgan bodomlar, eshitmadim demanglar!”. Jarchining chaqirig‘i barchani hushyorlikka chaqiradi. O‘quvchini asar

ruhini his qilishga tayyorlaydi, voqelik oqimiga asta sekin olib kiradi. Qissa shakl va mazmun jihatdan o‘zida yangi ifoda unsurlarini jamlagan edi. Asar kompozitsion tuzilishi jihatidan ham ana’naviy qissachilikda mavjud ana’naviy usuldagi boshlanmalarni takrorlamasdi. Har biri kichik sahifalardan tashkil topgan bo‘laklar tizimli ravishda mazmuni yoritib berishga qaratilgan. Bo‘laklarni mantiqiy butunlik va voqealar tadrijiyligi asos sifatida o‘zaro birlashtiradi. Muallif betakror bayon usuli bilan o‘quvchini ishontira oladi. U milliy odatlarni tasvirlash fonida dastlab, o‘quvchi zehni asar voqealar o‘zaniga olib kiradi, keyin asosiy maqsadga o‘tadi, o‘quvchini yo‘rig‘iga solib diqqatini “bo‘ysundiradi”, ortidan ergashtiradi. Har bir bo‘lakda xalq hayotiga tegishli alohida bir voqelik yoritiladi. Erkak va ayollar davrasi, bolalar to‘dasi o‘zining yoshi va jinsi, toifasiga mos ravishda ochib beriladi. Har bir bo‘lakda xalqning odati jonlantiriladi, voqealar zimnidan asar g‘oyasi sekin sizib chiqadi. Dastlab, muallif milliy qadriyatlarning himoyachisi sifatida tasavvur uyg‘otadi (*targ‘ibotchilikni bo‘yniga olmaydi, bu bir usul — S.T.*), maqsadga o‘tishga shoshmaydi, mavridi bilan maqsadini oydinlashtirib boradi.

Asarda Bo‘ri polvon obrazi yozuvchining estetik ideali sifatida bo‘y ko‘rsatadi. Voqealar ketma ketligida Bo‘ri polvonning chin inson ekanligini xolis tarzda oqu qorasi, yaxshiyu yomoni bilan tasvirlanadi. Qahramon tasvirida bunday yondashuv usulida Tog‘ay Murodning usta va mohirligi namoyon bo‘ladi. Bir o‘rinda u o‘zidan ancha yosh bo‘lgan Ismoil polvonni pisand qilmaydi kibrga berilib, yutqazadi. Bu lavhani yozuvchi o‘ta ruhiyat bilimdoni sifatida ochib beradi va eng qizig‘i polvon o‘z xatosini mardlik bilan tan oladi, kerakli ibrat oladi: “*Vaqt, vaqt! Shafqatsiz vaqt har davrning o‘z zo‘rlarini yaratadi! Inson buni xohlaydimi-yo‘qmi, vaqt uchun baribir — yarata beradi! Ana, vaqt o‘zining kenja zo‘rini yaratdi! Ana, kenja zo‘r, ana! Kenja zo‘r davrada o‘z mavqeini talab qilyapti, kenja zo‘r davrada o‘z shon-shuhratini talab qilyapti!*”. Mana shu kichik lavha orqali muallif hayot qonuniyatining amalga oshish mexanizmi, jamiki voqeliklarning ichki tartib va qoidasi borligi, umr o‘tkinchiligi va yugurik Vaqt barchasini o‘z o‘rniga qo‘yishiga ishora qiladi. Bu ham bo‘lak orqali butunni nishonga olishning eng zo‘r usullaridan biridir.

Asarda Bo‘ri polvon ulug‘vor faylasuf donishmand qiyofasida gavdalanadi. U necha marta og‘ir vaziyatga tushib qolganda, yutgan va yutqazganda ham ehtirosga berilmaydi, mohiyatni muhim biladi, oqibat ortida sabab turganini yodda tutadi. U Ismoil polvonga yutqazdi, g‘azabga berilmaydi, mag‘lubiyat sababini qidiradi. To‘ylarda kurash tushib yurgan polvon faqat harakat odami emas, balki fikr odami, keng qamrovli tafakkur sohibi. U kurashda boy berishning sabab va oqibatni xolis tahlil qila oladigan aql sohibi sifatida bo‘y ko‘rsatadi. Bunday lahzalarda asar ortida turgan muallif tafakkurining o‘ziga xos yo‘lqinlari yiltillab ko‘zga tashlanadi. Asar

voqealari davomida Bo‘ri polvon komillik bekatlaridan birma-bir o‘tib keladi, ba‘zan topadi, ba‘zan yo‘qotadi. Qahramon xarakteri charxlanadi, toblanadi, pishiydi oqibat Halol inson sifatida bo‘y ko‘rsatadi. Muallifning asl maqsadi asta-sekin ochilib boradi. Aslida, polvon Momoqiz vasliga yeta olmaslikni eng katta yo‘qotish deb biladi, umrini armonda o‘tkazadi. Polvonga bu bir imtihon, hayot sinovi edi, nazarimizda. Aslida, muzaffariyat marhumiyat evaziga keluvchi yoki marhumiyat muzaffariyatga yetkazuvchi bir yo‘ldir. Va polvon o‘ylagan ayriliq uni umr karvonining barcha sinovlaridan omon o‘tishiga umid beradi, mayoq singari yo‘lini yoritadi. Polvon yo‘qotish asnosida *O‘zini topadi, O‘zini taniydi, Imonini saqlaydi*. Qissaning eng katta *Haqiqati* polvonning *Imon yo‘lida* o‘zini topishidir.

Yana bir gap. Qissaning “Yulduzlar mangu yonadi” deyilishida ham ko‘p ma’nolar yashirin. Muallif polvonning mag‘lubligini “yulduz sanadi” deb ataydi. Yiqildi, kuragi yerga tegdi emas, balki yulduz sanadi deb yozadi. Yulduz sanash nima? Nega yiqilganda yulduz sanaydi polvon? Polvon kurash chog‘ida raqibning ko‘zi va unda o‘zining aksni ko‘radi. Mana shu ko‘rishda u borliqni unutadi, atrofni sezmaydi. O‘zi va raqib qoladi. Ayni mana shu tig‘iz pallada u olamdan uziladi, o‘zga olamda bo‘ladi. Raqibini ruhan “arbaydi”, ya‘ni gipnoz qiladi. Raqibni yutsa, olamda o‘zini yagona yulduz sanaydi. Hayotda omadi chopgan odam dunyoni boshqacha ko‘radi, albatta. Yutqazganda esa inson ko‘p xatolarini qaytadan hisob qiladi, ibrat oladi, tajriba bilan boyidi. Voqelikning boshqa qirralarini ko‘ra boshlaydi. Elda “ko‘zi yarq ochildi” degan ibora ishlatiladi. Polvon o‘zini anglasa yiqilganda asl haqiqatni angelaydi. Mag‘lub bo‘lish tiriklik mazmunini anglash tomon yo‘l ochadi, nafsi sinadi. O‘zini tanigan odam bundan kerakli xulosa chiqaradi. Polvon yulduz sanaganda ruhiy yangilanish yuz beradi. Muallif shunga ishora qilgan bo‘lishi mumkin.

Bo‘ri Polvon tomonidan aytilgan "Yulduzim mangu yonadi", deyishida muallif orzusining ovozi ham qo‘shilib ketganga o‘xshaydi. Birinchi asardayoq yozuvchi eng baland cho‘qqilarni ko‘zlagan va adashmagan edi. Qissa milliy qadriyatlarimizga hurmat, rishtalarni tiklash kabi muammolarni yoritib berish asnosida Bo‘ri polvon, Nasim va Momoqiz haqidagi sevgi dostonidan hikoya qiladi. Aslida, bu dostonni Bo‘ri polvon qog‘ozga emas, yuragida yozadi. Polvon sevgi dostonini dildan chiqarib yozadi, ko‘ngil tubiga cho‘kib ketgan sirlarni aytib yozadi, ammo bu yozuvni faqat o‘zi o‘qiydi, o‘zi kuyadi, o‘zi o‘rtanadi. “Bo‘rining ko‘nglida o‘z dostoni bo‘ldi. Bu doston hali kuylanmadi. Dostonni uch odam bildi: Momoqiz, Nasim, o‘zi bildi...”. Guyo Bo‘ri polvonning ko‘ngli doston muallif tomonidan kerak joyda ta’sir kuchi orttiriladi, ayrim o‘rinlarda urg‘ulanadi. “Oh — yurakdan, yosh — ko‘zdan bo‘ldi...”. Bu holatga berilgan ta’rifni yurakdan his qilasiz, “oh” sasi sizni ham bezovta qiladi. Inson qalbida qolgan zarbning og‘riqli

izlarini tasvirlashning bunday ifoda tarzi faqatgina Tog‘ay Murodga xos usulidir. Inson ruhiy holatlarning nozik to‘qimalarigacha singib ketgan ingichka lahzalarini bu qadar aniq va lo‘nda ifodalay olish adibning mahoratini ko‘rsatadi.

Asarda to‘y bahonasida muallif bir qancha eski dardlardan so‘z ochish bilan birga Bo‘ri polvon xarakterini ochib berishni maqsad qiladi. Muallif kurash orqali inson oriyati va g‘ururi, mardlik va adolatparvarlik, halollik fazilatlarini jonli lavhalar bilan dalillab ko‘rsatadi. Asarda kurashga tushishni yosh bolalar boshlab berishi bilan bog‘liq sahna bor. Bu kurashning o‘z ichki tartib qoidasi borligini bildirsa, ikkinchi tomondan milliy qadriyatlarimizni urg‘ulaydi. Avval ulug‘lar, keyin yosh bolalar, bu ham avlodlar orasidagi o‘zaro vorislik masalasi, davomiyligiga ishora qilinadi. *“Bo‘ri polvon yosh bolalarni o‘zaro kurashga tushirib shunday deydi. Qoni tortdi... Or-nomus uchun kurash bolalikdan boshlanadi. ...Vatan - kindik qon tommish yerdan boshlanadi!”*. Vatan haqidagi bunday ishonchli va asosli ta‘rifni yana qanday to‘ldirish mumkin?!

Muallif Bo‘ri polvonni tasvirlashda ikki jihatni: jismoniy va ma‘naviy quvvatni uyg‘un tarzda tasvirlaydi. Bo‘ri polvon ham jisman, ham ruhan baquvvat odam. Donishmandlik, tadbirlilik, farosat va zehnlilik kabi fazilatlar uning xarakterini ochib beruvchi xislatlardir. Vaziyatni tez anglaydigan, ko‘ngli qadrllovchi odam sifatida polvon asardagi eng yorqin obrazlardan biri sanaladi. Muallif voqealar tizimida asta-sekin polvon xarakteridagi hali o‘quvchiga tanish bo‘lmagan qirralarini ko‘rsatib beradi. Tog‘ay Murod Bo‘ri polvon siyratida chinakam o‘zbekning ma‘naviy qiyofasini ishonchli ravishda chiza olgan ijodkor sifatida qadrlidir. Hech bir o‘rinda muallif obrazga nisbatan “zo‘rlilik” ishlatmaydi, bir tomonlama yondashuvdan o‘zini saqlaydi, imkon bo‘lmaganda sharhlaydi. Yana bir o‘rinda muallif *“inson zoti Bo‘ri polvon zo‘r achinish bilan shuni his etdiki... inson qanchalik odil bo‘lsin, qanchalik tanti bo‘lsin, baribir... baribir o‘z yurti, o‘z eliga tortar ekan...”* Ba‘zi o‘rinlarda polvonning vaziyat oldida ojiz qolishini muallif izohlab to‘ldiradi, unga nisbatan xayrihohligini oshkor qiladi. Raisning onasi qabriga sag‘ana qurdirishi bilan bog‘liq sahnaga ham roviy orqali sharh beriladi. Bunday usul ham yozuvchining badiiy topilmalaridan biri sanaladi.

Bo‘ri polvon mard va oliyjanob odam sifatida ko‘p marta Nasimga rahmi keladi, uni kechirishni istaydi ammo ko‘ngil o‘z haqqidan kechmaydi. *“Bo‘ri polvonning ko‘ngli uyushib-uyushib ketdi. Nasim polvonga juda-juda rahmi keldi. Ammo ko‘ngli tub-tubida yashirinib yotmish nimadir... nimadir bu istagini rad etdi”*. Yozuvchi inson ruhiyatining bilimdoni sifatida o‘sha Bo‘ri polvon ko‘nglidagi *“nimadir”*dan kerakli vaziyatda juda o‘rinli qo‘llaydi. Bo‘ri polvon Nasimni odam safidan o‘chirgan, unga gap qo‘shmaydi, ammo faqat suhbat ko‘ngilda kechadi, ko‘ngillar tillashadi. Bo‘ri polvon emas, uning ko‘ngli so‘zlaydi.

Chunki ko‘ngil shikasta, ko‘ngil ozorlangan. Goh Nasim bo‘lib o‘zidan o‘zi kechirim so‘raydi, ba‘zan voqeaga sharh beradi, izoh so‘raydi, kechirim so‘raydi. Bo‘ri polvon o‘z hayotiy tutumlaridan kelib chiqib Nasimni o‘zicha jazolaydi, gap qo‘shmaydi, umuman hayotidan o‘chirib boshlaydi. Bir marta kurash davrasida to‘g‘ri kelib qolganda Nasimning ko‘zini ko‘rib kurashdan voz kechadi. *“O‘sha ma‘nosiz ko‘zlar, o‘sha bez ko‘zlar Bo‘ri polvon uchun qanchalik jirkanchli bo‘lsa, shunchalik qadrdonda edi! Qadrdon ko‘zlar Bo‘ri polvon qalbida ko‘pirib-toshayotgan qahrni so‘ndirib yubordi”*. Bo‘ri polvon qahrini so‘ndirgan holat tasviri sizning ham ko‘nglingizni ilitadi, polvonga hamdardlik hissini uyg‘otadi. Bo‘ri povon undan hazar qilsa, Nasim esa mendan mag‘lub bo‘lishini bilib taslim bo‘ldi deb hisoblaydi. Muallif ikki qahramon tabiatini yoritishda ularni bir-biriga qarama qarshi qo‘yadi, qiyoslaydi. Bo‘ri polvon yuksaklikka ko‘tarilsa, Nasim polvon tobora zaif, irodasiz inson sifatida namoyon bo‘ladi.

Yana bir o‘rinda Bo‘ri polvonning onasi vafoti bilan bog‘liq xabarni tuman gazetasida e‘lon qilinish voqeasi haqida so‘z boradi. Polvon xursandchiligimni emas, og‘ir kunimizni, xafachiligimizni nega elga aytib e‘lon qilasanlar deb xafa bo‘ladi. Shuning uchun ham Bo‘ri polvon boshqalarga o‘xshamaydi, (o‘xshamaslik muallifdan olingan ulgu bo‘lishi mumkin) gazetadagilardan og‘rinadi. Insoning og‘ir kunini emas, yaxshi kunini e‘lon qilish kerak deb hisoblaydi. Masalaga bunday yo‘sinda yondashuv polvonni o‘zgalardan ajratib turadi va bu qahramon xarakterining betakrorligini ta‘minlaydi.

Tog‘ay Murodning ijodi bilan tanishar ekansiz bisotimizdagi unutilgan so‘zlarni qaytadan muomalaga olib kirganiga guvoh bo‘lasiz. Qissani o‘qigan sayin yozuvchining topilmalariga duch kelasiz, so‘zlarning kerakli joyda bilib ishlatilganidan zavq sezasiz. Unutilib muomaladan chiqib ketayotgan so‘zlarning guyo changini qoqib, sayqal berib o‘z o‘rniga qo‘yadi. Bundan tashqari u bir so‘zga aylanib ketgan birikmalardan ko‘p foydalangan. Bunday birikmalar bir qancha ma‘no qatlamlardan iborat bo‘lib, mazmunni yoritishda ifodalanadi. Bo‘ri polvon Nasimga nisbatan eng yomon va munosib so‘z o‘rnida “qizbet” degan so‘zni qo‘llaydi. Bo‘ri polvon subutsiz raqibiga, omonatga xiyonat qilgan, yolg‘onchi, ojiz, munofiq, xoinga nisbatan “qizbet” deydi va shu orqali unga munosabatini bildiradi. Qizbet bugun ham mahalliy xalq orasida ishlatiladi. Nega aynan Nasimga nisbatan “qizbet” deb aytilishi qiziq. Xalqning tili tashbehlarga boy. Qizlarning yuzi oyga, hilolga go‘zallik nisbatiga qiyos qilinadi. Nima uchun xalq eng pastkashlik va tubanlikning ramzi bo‘lgan sifatga qizbet deydi? Tog‘ay Murod bekorga bu so‘zni qo‘llamagani aniq. “Qizbet” ikki so‘zning birikib bir ma‘noni tashkil qilishi va uning izohi e‘tiborni tortadi. Qissada Nasim oti kelgan joyda qizbet so‘zi ishlatilgan. Aynan shunday o‘rinlarda elning ulug‘vorligi va so‘z qo‘llashdagi donishmandligi

odamni mushohadaga chorlaydi. Qolaversa, el ilmidan yetarli daraja xabardor yozuvchi lisoniy tafakkurining yolqini ko‘zga tashlanadi. Tilmizda qizbetdan tashqari qiztaloq, qiztaka, qizig‘ar, hajiqiz kabi so‘zlar ham mavjud. O‘zagi qiz, hamma gap shunda. Erkak jinsiga nomunosiblik, qizlarga xos fitnaga moyillik, zaiflik tabiatiga o‘rnashib qolgan bevafo yigitlarga nisbatan qizbet so‘zi qo‘llanilgan, chamamda. Xalq ilmi, so‘z yasashdagi mahorati, qo‘shma so‘zlar tarkibidagi noziklik va mantiq iplarining chiyratmasi odamni lol qoldiradi. Yozuvchi el ilmini bir faylasuf darajasidan ham polvon har qancha og‘irlikni ko‘taradi, qiyinchilikka chidaydi, sinovga sabr qiladi, ammo do‘stning xiyonati unga og‘irlik qiladi. *“Keng yelkalaridan bir nima bosdi. Nima bo‘lsa-da, juda og‘ir bo‘ldi. Zilday og‘ir bo‘ldi. Har qancha polvon bo‘lmasin, do‘stining xiyonati unga og‘irlik qiladi. Polvon yelkaları bukiladi”*. Asardagi eng ta‘sirli sahnalardan biri. Jismi har qancha zarbani ko‘tarsada, ammo ruhi bundan ozorlandi, ishonchi darz ketdi.

Bo‘ri polvon va Nasim munosabatlarida omonatga xiyonat, sevgiga sadoqat, omonatdorlik hissi, halol va haromdan farqlanish, do‘stning xoinligi, lafzidan kechish va barcha zamon va makonda sotqinlik jazo olishi muqarrar ekanligi juda og‘riqli va ta‘sirli voqealar orqali ko‘rsatiladi. Bo‘ri polvon, ko‘ngilni ka‘ba biluvchi shaxs(to‘g‘rirog‘i, mazkur sifat muallifga hem tegishlidir), uning uchun kim bo‘lishidan qa‘tiy nazar har qanday inson qahramon, har bir odam mukarram zot. Momoqizni unuta olmaydi, har safar uni eslaganda yarasi yangilanadi. Ammo oshkora so‘z ochmaydi, ayolining hurmatini qiladi, Tilovberdining onasidan andisha qiladi. Andisha muhabbatdan kuchli, bu Iymonning belgisi. Mashhur raqqosa Tamaraxonim qancha odamlar orasidan kelib polvonning *“belbog‘iga cho‘k tushib”* raqsga tushganda ham ayolidan andisha qiladi. Aslida, bu polvonning Oллоhdan hayosi, nafsiga egalik qilishi edi. Muallif mazkur sahna orqali qahramon tabiatidagi fazilatlarini urg‘ulaydi. Yana bir o‘rinda Tilovberdi raqibining o‘g‘lini yengdi, ammo Bo‘ri polvonning tutumlariga ko‘ra hammasi halol bo‘lishi shart, shu bois u o‘g‘lining g‘alabasini tan olmaydi. Otalik mehri, farzand ne‘matidan va raqibni yengib huzurlanish hissidan ko‘ra unda halollik tuyg‘usi ustun, bu ham Iymonning belgisi! Bular barchasi mo‘minning qalbi, musulmonning yuragi, imon ostonasini muqaddas sanagan inson siyratining chizgilardir. Qahramon tabiatidagi bunday yetakchi xislatlar aslida Tog‘ay Murod insoniy “men”ining sachratqilaridir, muallif siyratidagi yashiringan sirlardir, ehtimol.